

## TIJORAT BANKLARNING MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI

**Roziqov Behzod Bahrom o'g'li**

*Fan va texnologiyalar universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi Orcid [0009-0009-7693-3288]*

**Avazov Obit Maxamatovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar hamda ularning bank tizimi rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida bank faoliyati samaradorligini belgilovchi ichki va tashqi omillar, xususan bank boshqaruvi samaradorligi, kredit portfeli sifati, operatsion xarajatlar darajasi, bank xizmatlari diversifikatsiyasi, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi hamda makroiqtisodiy muhitning ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, banklar faoliyati samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilinib, bank samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlash, bank xizmatlari sifatini oshirish hamda bank tizimining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *tijorat banklari, bank faoliyati samaradorligi, bank samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar, bank boshqaruvi, kredit portfeli sifati, operatsion xarajatlar, raqamli bank xizmatlari, bank risklari, moliyaviy barqarorlik, bank tizimi*

## АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

**Розиков Бехзод Бахром угли**

*Университет науки и технологий, доцент кафедры «Экономики», доктор философии по экономическим наукам (PhD) Ташкентский государственный экономический университет, независимый соискатель*

**Авазов Обит Махаматович**

*Независимый соискатель Ташкентского государственного экономического университета*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются основные факторы, влияющие на эффективность деятельности коммерческих банков, а также их значение в развитии банковской системы. В ходе исследования изучены внутренние и внешние факторы, определяющие эффективность банковской деятельности, в частности эффективность банковского управления, качество кредитного портфеля, уровень операционных расходов, диверсификация банковских услуг, уровень внедрения*

*цифровых технологий и влияние макроэкономической среды. Кроме того, проанализированы основные финансовые показатели, используемые для оценки эффективности деятельности банков, а также обоснованы научно-практические подходы к повышению эффективности банковской деятельности. Результаты исследования направлены на обеспечение устойчивости деятельности коммерческих банков, повышение качества банковских услуг и усиление конкурентоспособности банковской системы.*

**Ключевые слова:** *коммерческие банки, эффективность банковской деятельности, факторы эффективности банков, банковское управление, качество кредитного портфеля, операционные расходы, цифровые банковские услуги, банковские риски, финансовая устойчивость, банковская система*

## **ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING THE IMPROVEMENT OF THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANK ACTIVITIES**

**Rozikov Bekhzod Bakhrom ugli**

*University of science and technologies, associate professor of the department  
«Economics», doctor of philosophy in economical sciences (PhD)*

**Avazov Obit Makhamatovich**

*Independent researcher of Tashkent State University of Economics*

**Abstract:** *This article analyzes the main factors affecting the efficiency of commercial bank activities and their importance in the development of the banking system. The study examines internal and external factors determining banking efficiency, including the effectiveness of bank management, the quality of the loan portfolio, the level of operating expenses, diversification of banking services, the level of digital technology implementation, and the impact of the macroeconomic environment. In addition, the main financial indicators used to assess banking efficiency are analyzed, and scientific and practical approaches aimed at improving bank performance are substantiated. The results of the study contribute to ensuring the stability of commercial banks, improving the quality of banking services, and strengthening the competitiveness of the banking system.*

**Keywords:** *commercial banks, banking efficiency, factors affecting banking efficiency, bank management, loan portfolio quality, operating expenses, digital banking services, banking risks, financial stability, banking system*

### **KIRISH**

Hozirgi kunda jahon moliya tizimida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, moliyaviy bozorlarning integratsiyalashuvi hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylantirmoqda. Bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining muhim moliyaviy infratuzilmasi hisoblanib, u iqtisodiy subyektlar o'rtasida pul oqimlarini samarali taqsimlash, investitsiya jarayonlarini moliyalashtirish hamda

iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimini rivojlantirish, tijorat banklari faoliyatini modernizatsiya qilish va ularning xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bank tizimini modernizatsiya qilish va uning iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bank tizimining barqarorligini ta'minlash, bank xizmatlari sifatini oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir". [1]

Shuningdek, davlat rahbari bank tizimini iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlovchi muhim moliyaviy institut sifatida rivojlantirish zarurligini ta'kidlab, bank tizimini iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida baholab, shunday ta'kidlaydi: "Zamonaviy bank tizimi iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiya jarayonlarini moliyalashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi".[2] Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur o'rganishni talab etadi. Bank boshqaruvi samaradorligi, kredit portfeli sifati, bank xizmatlari diversifikatsiyasi, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, shuningdek makroiqtisodiy muhit va bank tizimini davlat tomonidan tartibga solish darajasi bank faoliyati samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni kompleks tahlil qilish hamda ularning bank tizimi rivojlanishidagi ahamiyatini aniqlash muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish iqtisodiyot nazariyasi va bank menejmenti sohasidagi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bank tizimi iqtisodiyotning moliyaviy infratuzilmasining asosiy bo'g'ini bo'lib, uning samarali faoliyati iqtisodiy o'sish, investitsiya jarayonlarining rivojlanishi hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, ularning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda bank faoliyati samaradorligini oshirish masalasi bank boshqaruvi samaradorligi, kredit portfeli sifati, bank xizmatlari diversifikatsiyasi, risklarni boshqarish tizimi hamda makroiqtisodiy muhit kabi omillar bilan bog'liq holda o'rganiladi. Shu nuqtai nazardan, mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning iqtisodiy ahamiyatini asoslashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, iqtisodchi olimlar T.Nguyen va S. Nghiemlar «bozor kontsentratsiyasining ta'sirini baholashda milliy xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, Xitoyda

bozorni monopollashtirish samaradorlikning pasayishiga olib keladi, Hindistonda esa resurslar tijorat banklari ishlab chiqarishga aylantirish samaradorligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini»[3] isbotlab berishganlar.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirib o'tilgan iqtisodchi olimlarnig qarashlarida tijorat banklari faoliyatida samaradorlikni oshirishning aynan qanday usullarini qo'llash bank faoliyatida samaradorlikni oshirishga ta'sir ko'rsatishi belgilab berilmagan.

Biz tadqiqot ishini o'rganish jarayonida MDH davlatlarining ba'zi iqtisodchi olimlari tomonidan bank faoliyatida samaradorlikni oshirishga qaratilgan tadqiqotlari bilan ham tanishib chiqdik. Xususan, O.I. Lavrushinga ko'ra, «bank faoliyati samaradorligi-bu kredit tashkilotining jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy me'yorlariga muvofiq o'z maqsadiga erishish qobiliyatidir».[4]

R. Bashirov esa «tijorat banklarining samaradorligi tushunchasini daromadlar, xarajatlar va foyda bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tadi».[5]

G.G. Korobovanning ta'kidlashicha «xarajatlarni minimallashtirish bilan birga foydani ko'paytirish tijorat banki faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Bank tomonidan olingan foyda yoki zararlar - bu bankning turli passiv va faol operatsiyalari natijalarini jamlaydigan va tijorat banklarining samaradorligiga ta'sir etuvchi barcha omillarni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bo'lib hisoblanadi».[6]

L. I. Yuzvovich, E. A. Trofimovalar bank faoliyati samaradorligiga quyidagicha ta'rif berishganlar, «tijorat bankining samaradorligi-bu bank qonunchiligiga va boshqaruv organlarining prudensial me'yorlariga rioya qilgan holda bank qiymatini yaratish va oshirish, biznes egalarining daromdliligini oshirishni o'z ichiga olgan raqobatbardosh faoliyat natijalaridir».[7]

I. V. Klyuyevning ta'kidlashicha «tijorat banki faoliyati samaradorligi tushunchasining ko'p qirrali va noaniqligi samaradorlik mezonlari sifatida bank tomonidan erishilgan moliyaviy natijalarni (daromad va foyda), samaradorlikni (rentabellikni) va moliyaviy holat ko'rsatkichlarining butun majmuasini (barqarorlik, likvidlik, to'lov qobiliyati) ko'rib chiqishga imkon beradi»[8].

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, mualliflar «tijorat bankining samaradorligi nafaqat uning faoliyati natijalari, balki bank faoliyatining ilmiy asoslangan strategiyasini (bank faoliyatining ahamiyati va qiymati bo'yicha tartiblangan maqsadlari tizimi) shakllantirish va uni amalga oshirish jarayonini nazorat qilish asosida qurilgan samarali boshqaruv tizimiga» alohida e'tibor qatatishlari lozim degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan, Sh.Q. Xannayev o'zining ilmiy izlanishlarida «turli mulkchilik shakliga ega bo'lgan banklarning samaradorligi ekonometrik baholab, ular faoliyatiga baho bergan. Bunda tijorat banklarining xarajatlar samaradorligi ko'rsatkichi stoxastik chegaraviy tahlil modelida baholagan» [9]. Ushbu tahlillar bir qancha modellar asosida amalga oshirilgan bo'lib, aynan mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida samaradorlikni oshirishning usullari va uning natijalariga alohida to'xtalib o'tilmagan.

H.U. Rahmatov o'z ilmiy qarashlarida «tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishning potentsial modeli va uni qo'llashning asosiy yo'nalishlarini hamda tijorat

banklarida aktiv amaliyotlari samaradorligini ta'minlash uslubiyoti bir qator muhim printsiplarga asoslanishini» [10] o'rganib chiqqan. Ammo mamlakatimiz banklari faoliyati samaradorligini oshirishda boshqa yo'nalishlari, xususan, banklarning samaradorligini ta'minlash elementlari hamda bank samaradorligining an'anaviy va zamonaviy usullari tahlil qilinmagan.

A.A. Abdug'anievga ko'ra «samaradorlik - u yoki bu tadbirlarni amalga oshirish natijasida erishilgan yutuqdir. "Iqtisodiy samaradorlik" tushunchasi esa samaradorlik tushunchasidan kengroq tushuncha bo'lib, u o'rganilayotgan davrda (kun, hafta, oy, chorak, yil va hakoza) amalga oshirilgan tadbirlar tizimi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar hamda ular natijasida olingan sof foyda miqdori bilan taqqoslanadi» [11] deya ta'kidlab o'tgan. Ammo ushbu jarayonda aynan banklarning samaradorligini ta'minlash yo'llari keltirib o'tilmagan.

Yuqorida keltirilgan xorijiy, MDH va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari tijorat banklari faoliyati samaradorligi murakkab va ko'p qirrali iqtisodiy kategoriya ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda bank faoliyati samaradorligi turli jihatlar, jumladan daromadlilik darajasi, operatsion xarajatlar samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, likvidlik hamda bank boshqaruvi sifatiga bog'liq holda talqin etilgan.

Xususan, ayrim olimlar bank samaradorligini asosan bankning moliyaviy natijalari – daromad, xarajat va foyda ko'rsatkichlari orqali baholashni taklif etgan bo'lsa, boshqa tadqiqotchilar bank faoliyatining samaradorligini bank resurslaridan foydalanish darajasi, bank qiymatini oshirish hamda bank boshqaruv tizimining samaradorligi bilan izohlaydilar. Shu bilan birga, ayrim ilmiy ishlarda bank samaradorligini baholashda banklarning moliyaviy barqarorligi, likvidligi, to'lov qobiliyati hamda risklarni boshqarish darajasi kabi ko'rsatkichlarning muhimligi ta'kidlangan.

Muallifning fikricha, tijorat banklari faoliyati samaradorligini faqat moliyaviy natijalar orqali baholash yetarli emas. Bank samaradorligi ko'p omilli jarayon bo'lib, u bank boshqaruvi samaradorligi, kredit portfeli sifati, bank xizmatlari diversifikatsiyasi, raqamli bank texnologiyalarini joriy etish darajasi hamda bank risklarini boshqarish tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli bank faoliyati samaradorligini baholash va oshirish jarayonida moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda bankning strategik rivojlanish yo'nalishlari, innovatsion faoliyati hamda mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar tizimini ham kompleks ravishda tahlil qilish zarur.

Shuningdek, zamonaviy bank tizimi sharoitida tijorat banklari samaradorligini oshirish nafaqat operatsion faoliyat natijalari, balki bank boshqaruvining strategik yondashuvlari, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardosh muhitni shakllantirish bilan ham bevosita bog'liq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda banklarning innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirish, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish hamda zamonaviy risk-menejment tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini o'rganish jarayonida umumilmiy va

maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llaniladi. Tadqiqot davomida tijorat banklari faoliyati samaradorligiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, bank tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ushbu metodologik yondashuvlar tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning nazariy jihatlarini asoslash imkonini beradi.

Asosiy qism. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur o'rganish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan bank resurslaridan foydalanish darajasi, moliyaviy natijalar, kredit portfeli sifati hamda bank boshqaruv tizimining samaradorligi bilan bog'liqdir. Shu sababli tijorat banklari faoliyatining samaradorligini baholash va tahlil qilishda turli moliyaviy ko'rsatkichlar va iqtisodiy indikatorlardan foydalanish zarur hisoblanadi. Mazkur tadqiqot doirasida tijorat banklari faoliyati samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinib, bank samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omillar aniqlanadi. Shuningdek, banklarning moliyaviy natijalari, aktivlar va kapitaldan foydalanish darajasi hamda daromad keltiruvchi operatsiyalar ulushi asosida bank faoliyatining samaradorligi baholanadi. Olingan natijalar tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish hamda bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashda bir qator moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar bank resurslaridan foydalanish darajasi, daromadlilik, moliyaviy barqarorlik hamda bank boshqaruvi samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlarda bank faoliyati samaradorligini baholashda aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi (NIM), xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR), kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR), likvidlik ko'rsatkichlari hamda muammoli kreditlar ulushi (NPL) kabi indikatorlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Aktivlar rentabelligi (ROA) bankning jami aktivlaridan foydalanish samaradorligini ifodalab, bank tomonidan mavjud aktivlar orqali qanchalik darajada foyda olinayotganligini ko'rsatadi. Kapital rentabelligi (ROE) esa bank kapitalidan foydalanish samaradorligini ifodalaydi hamda bank aksiyadorlari uchun muhim moliyaviy ko'rsatkich hisoblanadi. Sof foiz marjasi bankning foiz daromadlari va foiz xarajatlari o'rtasidagi farqni aks ettirib, bankning asosiy operatsion faoliyati natijadorligini tavsiflaydi.

## 2-jadval

### Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar<sup>28</sup>

Omil	Mazmuni	Bank samaradorligiga ta'siri
Moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish	Bank resurslarini samarali boshqarish, aktiv va passivlarni muvozanatlash hamda moliyaviy strategiyani to'g'ri	Bank daromadlilikini oshiradi, kapital va aktivlardan samarali foydalanishni ta'minlaydi

<sup>28</sup> Muallif ishlanmasi

	shakllantirish	
Innovatsion texnologiyalarni joriy etish	Raqamli bank xizmatlari, mobil banking, internet banking va fintech texnologiyalaridan foydalanish	Operatsion xarajatlarni kamaytiradi, xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi
Kredit risklarini boshqarish	Kredit portfeli sifatini nazorat qilish, muammoli kreditlarni kamaytirish va risk-menejment tizimini takomillashtirish	Kredit portfeli barqarorligini ta'minlaydi va bankning moliyaviy xavfsizligini oshiradi
Xarajatlarni optimallashtirish	Operatsion xarajatlarni tahlil qilish va ularni kamaytirish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish	Bank rentabelligini oshiradi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi
Bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish	Yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini joriy etish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish	Daromad manbalarini ko'paytiradi va bozor raqobatbardoshligini oshiradi
Mijozlar bilan ishlashni yaxshilash	Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini o'rganish va xizmatlarni moslashtirish	Mijozlar bazasini kengaytiradi va bank xizmatlariga bo'lgan talabni oshiradi

Bank faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish jarayonida ularni shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Ichki omillarga bank boshqaruv tizimi samaradorligi, kredit portfeli sifati, bank resurslari tuzilmasi, operatsion xarajatlar darajasi, bank xizmatlari diversifikatsiyasi hamda raqamli bank texnologiyalarini joriy etish darajasi kiradi. Tashqi omillar qatoriga esa makroiqtisodiy muhit, moliya bozoridagi raqobat darajasi, bank tizimini davlat tomonidan tartibga solish siyosati hamda moliyaviy bozorlarning rivojlanish darajasi kiradi.

Xususan, bank boshqaruv tizimining samaradorligi bank strategiyasini to'g'ri shakllantirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda risklarni samarali boshqarish orqali bank faoliyatining umumiy natijadorligini oshiradi. Kredit portfeli sifatining yuqori darajada bo'lishi esa muammoli kreditlar ulushining kamayishiga hamda bank aktivlarining daromadlilikini oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda raqamli bank xizmatlarini joriy etish bank operatsiyalarining tezligi va qulayligini oshirib, operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda bank xizmatlari sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Umuman olganda, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish bank boshqaruvini takomillashtirish, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda risklarni samarali boshqarish tizimini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu omillar bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### 1-jadval

AT "Aloqabank" faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili<sup>29</sup>

№	Ko'rsatkich	Formula	Hisoblash ma'lumotlari	Natija
1	Aktivlar rentabelligi (ROA)	Sof foyda / Jami aktivlar ×100	190 mlrd / 251,3 mlrd	23 / 1,0 %

<sup>29</sup> AT "Aloqabank"ning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

2	Kapital rentabelligi (ROE)	Sof foyda / O'z kapitali ×100	190 mlrd / 3 082,2 mlrd	6,6 %
3	Sof foiz marjasi (NIM)	(Foizli daromad – foizli xarajat) / Foizli aktivlar ×100	(2 249 – 1 865) / 15 434,5	2,5 %
4	Xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR)	Operatsion xarajatlar / Operatsion daromadlar ×100	3 925 / 4 115	95,4 %
5	Kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR)	Bank kapitali / Riskka tortilgan aktivlar ×100	3 082,2 / 23 251,3	13,2 %
6	Likvidlik koeffitsiyenti	Qisqa muddatli aktivlar / qisqa muddatli majburiyatlar	5 640,5 / 6 096,4	92 %
7	Muammoli kreditlar ulushi (NPL)	Muammoli kreditlar / Jami kreditlar ×100	10,2% + 0,8% + 0,1%	11,1 %

Yuqoridagi 1-jadvalda tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashda muhim hisoblangan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Ushbu indikatorlar bankning moliyaviy barqarorligi, daromadlilik darajasi, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda bank risklarini boshqarish holatini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, mazkur ko'rsatkichlar bank faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi muhim omillarni aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, bankning aktivlar rentabelligi (ROA) 1,0 foizni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkich bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini ifodalaydi hamda bank tomonidan mavjud aktivlar orqali qanchalik darajada foyda olinayotganligini ko'rsatadi. ROA ko'rsatkichining ijobiy darajada bo'lishi bank aktivlaridan ma'lum darajada samarali foydalanilayotganligini bildiradi. Biroq ushbu ko'rsatkichning nisbatan past darajada bo'lishi bank aktivlarining daromadlilikini oshirish zarurligini ham ko'rsatadi.

Bank faoliyati samaradorligini tavsiflovchi muhim indikatorlardan biri bo'lgan kapital rentabelligi (ROE) 6,6 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich bank kapitalidan foydalanish samaradorligini ifodalab, investorlar va aksiyadorlar uchun muhim moliyaviy indikator hisoblanadi. ROE ko'rsatkichining mavjud darajasi bank kapitalidan foydalanish samaradorligi mavjudligini ko'rsatadi, biroq ushbu ko'rsatkichni oshirish uchun bank daromadlarini ko'paytirish hamda operatsion xarajatlarni optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sof foiz marjasi (NIM) 2,5 foizni tashkil etib, bankning foiz daromadlari va foiz xarajatlari o'rtasidagi farq orqali shakllanadigan asosiy daromad manbai samaradorligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich bankning kreditlash faoliyati hamda foizli aktivlardan foydalanish darajasini tavsiflaydi. NIM ko'rsatkichining mavjud darajasi bankning foiz operatsiyalari orqali daromad olish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Jadval tahliliga ko'ra, xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR) 95 foizni tashkil etmoqda. Mazkur ko'rsatkich bank operatsion samaradorligini baholash imkonini beradi. CIR ko'rsatkichining yuqori darajada bo'lishi bank operatsion xarajatlari ulushi nisbatan yuqori ekanligini bildiradi. Shu sababli bank faoliyatida operatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish orqali xarajatlarni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bankning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lgan kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR) 13,2 foizni tashkil etmoqda. Mazkur ko'rsatkich bankning risklarni qoplash imkoniyatini hamda moliyaviy barqarorligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichning xalqaro me'yorlarga mos darajada bo'lishi bankning moliyaviy barqarorligi yetarli darajada ta'minlanganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, bankning likvidlik koeffitsiyenti 92 foizni tashkil etib, bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatini ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkich bankning likvid aktivlari mavjudligini ko'rsatadi hamda bank faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, muammoli kreditlar ulushi (NPL) 11,1 foizni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkich kredit portfeli sifatini tavsiflovchi muhim indikator hisoblanadi. NPL ko'rsatkichining nisbatan yuqori darajada bo'lishi bank faoliyatida kredit risklarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, keltirilgan ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari faoliyati samaradorligi bank aktivlari va kapitalidan foydalanish darajasi, operatsion xarajatlar samaradorligi, kredit portfeli sifati hamda bank risklarini boshqarish tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli bank faoliyati samaradorligini oshirish uchun bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish, raqamli bank texnologiyalarini keng joriy etish, kredit portfeli sifatini yaxshilash hamda operatsion xarajatlarni optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot doirasida tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari faoliyati samaradorligi ko'p omilli iqtisodiy jarayon bo'lib, u bank boshqaruvi samaradorligi, kredit portfeli sifati, operatsion xarajatlar darajasi, bank xizmatlari diversifikatsiyasi hamda raqamli bank texnologiyalarini joriy etish darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Tahlil natijalariga ko'ra, bank faoliyatining moliyaviy samaradorligini baholashda aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi (NIM), xarajatlar va daromadlar nisbati (CIR), kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR), likvidlik ko'rsatkichlari hamda muammoli kreditlar ulushi (NPL) kabi indikatorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'rsatkichlar bank faoliyatining moliyaviy natijalari, resurslardan foydalanish darajasi hamda bank risklarini boshqarish holatini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida bank samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar ichki va tashqi omillarga ajratilib tahlil qilindi. Ichki omillar qatoriga bank boshqaruv tizimi samaradorligi, kredit portfeli sifati, operatsion xarajatlar darajasi, bank xizmatlari diversifikatsiyasi hamda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish darajasi kiradi. Tashqi omillar esa makroiqtisodiy muhit, moliya bozoridagi raqobat darajasi, bank tizimini davlat tomonidan tartibga solish hamda moliyaviy bozorlarning rivojlanish darajasi bilan bog'liqdir.

Tadqiqot natijalari asosida tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Bank boshqaruv tizimini takomillashtirish. Tijorat banklarida strategik boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish, aktiv va passivlarni samarali boshqarish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarur.

2. Kredit portfeli sifatini yaxshilash. Muammoli kreditlar ulushini kamaytirish maqsadida kredit risklarini baholash tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy risk-menejment usullarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

3. Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish. Mobil banking, internet banking va boshqa fintech texnologiyalarini keng joriy etish orqali bank xizmatlari sifatini oshirish hamda operatsion xarajatlarni kamaytirish mumkin.

4. Bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish. Yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini joriy etish, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish hamda mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish bank daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

5. Operatsion xarajatlarni optimallashtirish. Bank faoliyatida zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini qo'llash hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

6. Bank faoliyatini kompleks baholash tizimini takomillashtirish. Tijorat banklari faoliyatini baholashda ROA, ROE, NIM, CIR, CAR va NPL kabi ko'rsatkichlar bilan bir qatorda bank xizmatlari sifati, innovatsion faoliyat darajasi hamda mijozlar qoniqish darajasini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish, bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M., "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmon, 12 may 2020 yil

2. Mirziyoyev Sh.M., Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 29 dekabr.

3. Nguyen, T., Nghiem, S. (2016). Market concentration, diversification and bank performance in China and India. *Managerial Finance*, Vol. 42, No. 10, 980–998. DOI: 10.1108/mf-12-2015-0327.

4. Лаврушин О.И. Деньги. Кредит. Банки – учебное пособие: КНОРУС, 2014. 448 с.

5. Баширов Р. Оценка эффективности деятельности коммерческих банков в регионах // РИСК: Ресурсы, информация, снабжение, конкуренция. 2011. № 4.

6. Коробова Г.Г. Банковское дело: учебник Г.Г. Коробова. М.: Экономистъ, 2006, 766.

7. Юзвович Л. И., Трофимова Е. А. Совершенствование оценки эффективности деятельности коммерческого банка в условиях межбанковской конкуренции: моногр. Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2018. 120 с.

8. Ключев И.В., Основные методики оценки эффективности банковской деятельности // Социально-экономические явления и процессы. 2016. № 6. С. 5–9.

9. Ханнаев Ш.Қ. “Турли мулкчилик шаклидаги банклар фаолияти самарадорлиги таҳлили” “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2019 йил 1/2019 (№ 00039) [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)

10. Х.,У. Рахметов. Банк активлари самарадорлигини ошириш масалалари: замонавий ёндашув ва ечимлар: Монография /; - Т.: 'Iqtisod-Moliya', - 292 б.

11. Абдуғаниев А., Абдуғаниев А.А. “Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти” Тошкент “Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси ” нашриёти 2006 йил, 244-бет.